

Mathaliqova Zulhumor, NamDChTI magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada “Alpomish” dostonida uchrovchi qush va hayvon nomlarining nemischada berilishi to`grisida fikr yuritiladi.*

Kalit so`zlar: *Doston, tarjima, adekvat, izoh, totem, mazmun.*

Аннотация: В данной статье дается мнение о немецком языке названий птиц и животных, встречающихся в эпосе «Алпомии».

Ключевые слова: Эпос, перевод, адекват, объяснение, тотем, содержание.

Abstract: This article gives an opinion about the German language of the names of birds and animals found in the epic “Alpomish”.

Key words: Epic, translation, adequate, explanation, totem, content.

Bizlarga ma'lumki, o'zbek xalq og'zaki ijodi, folklorini parranda va hayvonot olamisiz tasavvur qilish qiyin. Chunki Alpomish Boychiborsiz o'z maqsadiga erisha olmas va afsonaviy Xumo, Semurg¹, Anqo va Qaqnus qushlar kabi asrlar osha xalq og'zaki ijodida mustahkam o'rashib olmasdi. Bundan tashqari, epik hamda adabiy tur janrlaridan biri masal qahramonlari faqat qush va hayvonlar ekanligi fikrimizning dalilidir. Bunga sabab insoniyat qadim o'tmishda ularga totem sifatida qaraganlidir. Otning totem sifatida tan olinishini dunyo xalqlarining aksariyatida mavjud ekanligini Jeyms Frezer¹ ham alohida qayd qiladi.

Atoqli folklorshunos Hodi Zarif epik otning bosh obraz darajasida ekanligini, “unga bo'lgan qadimiyligi e'tiqodning ta'siri, deb biladi. Ot totem bo'lganligi uchun unga qahramonni ko'krak suti tomondan, qahramonga yengilmas kuch va qudrat bag'ishlaydi degan e'tiqoddan kelib chiqqan”.

Shuni aytish joizki, xalqimizda “Ot bitdi-qanot bitdi”, “Ot-yigitning

¹ Frezer DJ. Zolotaya vety. -Moskva: IPL, 1982. -192 s.

www.tadqiqotlar.uz

4-to'plam 1-son fevral 2024

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

yo'ldoshii", "Ot-yigitning qanoti" kabi o'nlab maqollar bor. Ularda o'zbekning otga bo'lgan munosabati aniq va ravshan ifodasini to'gan. Otning ajdodlaoimiz xayotida naqadar muhim o'rni bo'lganligini afsona, rivoyat, qo'shiq, ertak va dostonlar matnidan ham bilsa bo'ladi. Ota-bobolarimiz otga, ayniqsa, zotli va yaxshisiga, xech qachon hayvondek munosabatda bo'limgan. Ular hamisha ot bilan suhbatlashganlar, o'z sirlarini otga aytganlar, tashvishlarini xam, quvonchlarini ham ot bilan baham ko'rganlar. Eng muhimi, ot ham inson mehriga mehr bilan javob qaytargan. Xatto, kishilar kishilar xotiralarida otning o'z egasidan ziyrak, xushyor, tadbirkorligini ko'rsatuvchi hikoyalar ko'p saqlagan. SHuning uchun ham, yaxshi sinchi (otning zotini, fe'lini yaxshi biladigan mutaxassis) tarbiyasini ko'rgan zotdor otning qimmati 'ul oltin bilan o'lchanmagan. Yigitning hamrohi yaxshi ot bo'lsa, u to'kis inson hisoblangan. Otni sotish, birovga berish otga xiyonat bilan teng kqrilgan. Xozir ham millatdoshlarimiz o'rtasida bu an'ana va qadriyatimizga amal qiluvchilar kam emas.

"Alpomish" dostoni bilan tanishgach, dostonning bosh qahramoni Hakimbek-Alpomishning o'zi desak xatoga yo'l qo'yamiz. Chunki ijodkor baxshilarimiz dostonni yaratish orqali xalqimizning sevikli xayvoni otga ham o'ziga yarasha haykal o'rnatdilar. Xalq orzusiga yarasha qahramonlariga mos, otni ravo ko'radi. G'irot, G'irko'k, Boychibor ana shunday otlardandir.

Alpomish yigit bo'lib o'z qaylig'i Barchinning oldiga qalmoqlar bilan kurashib, uni olib qaytish uchun safarga otlanar ekan, yo'lning tanobini tortishda hamroh bo'ladigan oti yo'qligi uchun Qultoy oldiga boradi. Qultoy Boybo'rining Alpomishga ot bermaslik xaqidagi buyrug'iga amal qilib unga ot bermaydi. Alpomish kuchini ko'rsatgandan so'ng, ot berishga majbur bo'ladi.

Qadimgi afsona va rivoyatlarga ko'ra otni qiz bola yuvib tarasa, otda ijodiy o'zgarish ro'y berar ekan². SHu bois Boychiborni akasiga Qaldirg'och egarlab berishi dostonda alohida tasvirlangan.: *Qaldirg'och "Aka otingdan g'am yema" deb, "Oting tulpor bo'ladi" dedi. Olib ketdi. Otni qirq kun boqdi, qirq kundan so'ng otni sovutdi. Egar abzal qilib aksini mindirdi, qo'lga bo'ztarlon qushni*

² Madaev O. Alpomish bilan suhbat. –Toshkent "Mahnaviyat" 1999. 64 b.
www.tadqiqotlar.uz

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

qo'ndirdi, egarning qoshiga zumrad dovulni ildirdi. Tarjimasi: *Qaldirg`och “Bruder, Graeme dich nicht um dein Pferd: dein Pferd wird ein Tulpor” Sie nahm das Pferd und bewachte es vierzig Tage lang, dann führte sie es heraus. Sie sattelte es und zähmte es und half ihrem Bruder aufzusteigen. Dann setzte sie ihm einen Falken auf die Hand und hängte an den Sattelbogen eine smaragdbesetzte Trommel.*

Mohir tarjimon ushbu tasvirni olmon tiliga chiroylı o'girgan. Tarjimon bo'z tarlon qushni lochin ekanligini to'g'ri fahmlab uni *der Falke* deb asliyatga mos ravishda tarjima qilgan. Tulpor so'zini esa transkriptsiya bilan *Tulpor* deb berilgan va kitobning izohlar qismida *Tulpor-gefluegeltes Pferd* ya'ni (*uchar ot*) deb ta'riflagan. Bunga albatta mutarjimning o'zbek xalqi fog'lklor og'zaki ijodini yaxshi o'rgangani va O'zbekistoda bir necha marta bo'lgani sabab bo'lsa kerak.

“Alpomish” dostonidagi qush va hayvonlar qo'llanilishiga ko'ra, to'g'ri, ya'ni o'z ma'nosida va ko'chma ma'nolarda kelgan. O'z ma'nosida ular Dasht, cho'l va ko'l tasvirida hamda e'itetlarda, takrorlanib keluvchi epik klishelarda uchrasa, ko'chma ma'noda metafora(qo'zi-qo'chqorim, suqsur-so'na qiz) o'xshatish(sher haybatli, yo'l bars kelbatli, qo'lon yurakli, arslon bilakli, quralay ko'zli, qarchig'ay kelbatli, suqsurday, yo'l barsday, sherd़ay, qushday, bulbuldayin, bo'taday, itday, qo'l onday, ajdahor ilonday, g'ozday, qo'yday, toyday, kiyikday)larda uchraydi. Fikrimizcha, ularning tarjimalaridagi milliy va mahalliy o'ziga xoslikning qay tarzda qayta tiklanganligini aniqlash bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. Zero, har bir asar muayyan adabiy-estetik muhitda tug'iladi, unda tasvirlangan jamiki narsalar, ya'ni faqat insonlar timsoligina emas, balki tabiat: osmon, zamin, suv, o'rmon, hayvonlarigacha, ya'ni umuminsoniy tushunchalar ham milliylik bilan sug'orilgan bo'ladi. SHu ma'noda biz avvalambor 'arranda nomlari ustida to'xtalamiz.

a) Parranda nomlari tarjimalari: *qush – Voegel, Bo'z tarlon qush - der Falke, so'na - Wildgans.*

Tarjima matnida *Qush* so'zi ham kontekstdan kelib chiqib, nemis tiliga “*der Voegel*”, “*der Falke*” deb o'girilgan. Tarjimon ayrim qush nomlarini kontekst

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

mazmuniga ko'ra, konkretroq o'girishga harakat qilgan bo'lsa (masalan: *g'oz - die Gans* - (*g'oz*), ba'zilarida bu narsaning, umuman, teskarisi ro'y bergan (Masalan, dostonda berilgan *yovvoyi o'rdakning konkret* (*so'na*) turi mavhum ravishda "die Wildgans" - *yovvoyi g'oz* shaklida o'girilgan). Fikrimizcha, *so'na* - *die Stockente* shaklida berilsa, asl nusxa yanada oydinlashar edi.

b) hayvonot olami nomlari tarjimasi. Asl nusxa matni teran nazar bilan qaralsa, unda epik otning turli xil nomlanishi ko'zga tashlanadi. Bundan uning ildizi qadimgi xalqlar orasida mavjud bo'lgan va uzoq davrgacha saqlanib qolgan ot kulg'tiga borib taqalishini sezish mumkin. Ye.E.Kuzmina O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida ot kulg'ti bo'lganligi haqida qadimgi grek tarixchilari Gerodot, Strabon asarlarida ma'lumot berilganligini yozsa, folklorshunos M. Murodov, "Qadim o'tmishda O'rta Osiyo xalqlari turli hayvonlarga e'tiqod qilib, ularni o'zlarining ma'budalari hisoblaganlar. Ba'zi urug'lar o'z ma'budalari deb bo'riga to'ingan bo'lsalar, ayrim urug'lar otga, boshqalari baliq, yo'lbars, arslon kabi hayvonlarga yohud qushlarga sig'inib, ularni xudo hisoblaganlar, ulardan najot kutganlar"- deb yozib, qadimgi ajdodlarimiz faqat otni emas, boshqa hayvonlarni ham kulg't darajasiga ko'targanliklarini ta'kidlaydi³. Dostonda ot bilan bog'liq bo'lgan so'zlarning nisbatan boshqa hayvon turlariga qaraganda ko'proq uchrashi, ot kulg'ti yoki totemi ta'sirining asarda ko'proq saqlanib qolganligi bilan sharhlanadi. Avvalambor, "ot" va uning turlari bilan bog'liq so'zlar va so'z birikmalarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Masalan: *ot* - *das Pferd* (*cho'qir ot*); *g'o'nan* (*ikki yashar ayg'ir*) - *das Fohlen* (*yosh ot*); *toy* (*otning ikki yashardan kichik bolasi*) - *das Fohlen* (*toy*); *tulpor ot* - *geflügeltes Pferd* (*qanotli ot*); *tulpor* - *der Schlachtross*, *yilqi* - *die Pferdeherde* (*ot uyuri*):.

Tarjimon bu yerda "yilqi" so'zini "das Pferd" (ot, yilqi) shaklida bersa, ma'qulroq bo'lar edi. Chunki kontekst mazmuniga ko'ra, "yilqi" so'zi otlar 'odasi ma'nosida emas, balki 'odada boqiladigan ot ma'nosida kelgan. Tarjimon esa uning

³ Murodov M. Go'ro'g'li dostonlarining janr va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari: Filol. fanlari dokt. ...diss. -Toshkent: O'zRFA TAI, 1975. -404 b.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

birinchi ma’nosida o’girgan. Yoki *tulpor* so’zini “der Ross” shaklida bersa ham bo’lur edi.

Boshqa turdagи hayvonlar turlari nomlarining tarjimalarida ot turlari nomlaridagi kabi kamchiliklar deyarli uchramaydi. Masalan: *kuchuk* - *kleiner Hund*; *eshak* - *der Esel*; Fikrimizcha, tarjimon “*kuchuk*” so’zining “*kleiner Hund*” (kichkina it) tarjimasi o’mida, uning mavjud ekvivalenti(“das Hündlein”- *kuchukcha*)ni bersa, yanada ma’qulroq bo’lar edi.

Bir so’z bilan aytganda Karl Rayxlning tarjimada qo’llagan uslubi eng to’g’ri uslub bo’lib, istagan nemis o’quvchisi tarjima variantini o’qir ekan, voqeanning qaerda, qaysi millat doirasida kechganligini realiyalar orqali oson anglab oladi. Bundan tashqari, tarjimon ayrim milliy so’zlarning nemis tiliga o’zlashib, ularning lug’at tarkibidan joy olishiga hissa qo’shgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva M. Tarjimada milliy o’ziga xoslikni ifodalash yo’llari // O’zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2004. -№ 6.
2. Madaev O. Alpomish bilan suhbat. – Toshkent “Mahnaviyat” 1999.
3. Mirzaev T. “Alpomish” dostonining o’zbek variantlari. – Toshkent: Fan, 1958.
4. Murodov M. Go’ro’g’li dostonlarining janr va g’oyaviy-badiiy xususiyatlari: Filol. fanlari dokt. ...diss. – Toshkent: O’zRFA TAI, 1975.
5. Frezer DJ. Zolotaya vety’. – Moskva: 1982.